



**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING “BOBURNOMA”
ASARIDAGI ADABIY JANRLAR NUQTAI NAZARIDAN TAHLIL VA
UNING TURKIYADA O’RGANILISHI**

Obidova Ruxshona Vohid qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti Turkiya tarixi yo‘nalishi

Turk-ingliz guruhi 2-bosqich talabasi

Obidovaruxshona56@gmail.com

Ilmiy rahbar: I.B. Xudoynazarov

Annotatsiya: Buyuk Turkiston mintaqasida islom madaniyati ta’sirida, Temuriylar davrida shakllangan Xorazm turkchasining davomi sifatida rivojlangan Chig‘atoy tilining eng qimmatli vakili — buyuk adib va tilshunos Alisher Navoiydir. Undan keyin esa bu til va adabiyotga hissa qo‘shgan shaxs — Zahiriddin Muhammad Bobur bo‘lib, uning “Boburnoma” asari adabiy janr nuqtayi nazaridan turlicha fikr va talqinlarga sabab bo‘lgan. Ba’zilar ushbu asarni g‘arb tarixiy shaxslarining asarlari bilan qiyoslaydi, boshqalar esa uni o‘ziga xos, yagona bir asar deb hisoblaydi. Ushbu maqolada sifatli tadqiqot va tahlillar doirasida bayon asosidagi adabiy janrlar o‘tmishdan to hozirgi kungacha o‘ziga xos uslub, shakl va mazmun farqlari bilan rivojlanib kelgani tabiiy hol sifatida qaraladi. Shu bilan birga tarixiy matnlar, xotira asarlari, voqea bayonlari va kundalik tarzidagi yozuvlar o‘zlariga xos xususiyatlarga ega ekani haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Boburnoma, adabiy janr, bayon asosidagi adabiy asarlar, xotira, kundalik.

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari “Boburnoma” 1519–1530 yillar oralig‘ida bosqichma-bosqich yozilgan. 1509–1519 yillar orasidagi davrga oid qism yo‘qolgan bo‘lgani sababli, asarning aynan qachon yozila boshlanganini aniqlash mushkul. Oldingi yillarga oid qismlar keyinchalik xotira tarzida yozilgan bo‘lsa, 1519



yildan boshlab voqealar kunma-kun qayd etilgan va shu bilan Boburnoma “kundalik” shakliga kirgan. Xotira tarzida yozilgan voqealarning batafsil bayoni Boburning kuchli xotirasidan dalolat berishi mumkin, biroq bu qismlar ilgari tuzilgan yozuvlardan foydalanilgan bo‘lishi ehtimoli ham mavjud. Bobur Shoh tomonidan Hindistonda bir turk davlati asos solingan va bu asar aynan uning tomonidan yozilgan esdalik hamda tarixiy asardir. U Chig‘atoy turkchasida yozilgan. Boburnoma ko‘plab tillarda bir necha bor chop etilgan. Shoir mavzuni sodda va zamonaviy uslubda bayon etgan. Asar 1531 yilda nashr etilgan.

Turkiya turklari Boburnoma bilan ilk bor 1940-yillarda Reshit Rahmeti Aratning tarjimai orqali tanishganlar¹. Aratning bu ishi G‘arb olimlari tomonidan bir asr avval boshlangan tarjima va tadqiqot ishlarining yakuniy bo‘g‘inlaridan biridir. O‘mer Faruq Akunning Diniy Islom Ensiklopediyasi uchun maxsus tayyorlagan “Bobur” maqolasi juda boy ma’lumotlarga ega. Boburnomadagi so‘z boyligi unsurlari tasnif qilinib, semantik (ma’nodoshlik) va madaniy tilshunoslik nuqtayi nazaridan baholanishi, tarixiy (diaxronik) va zamonaviy (sinxronik) tahlillar orqali solishtirilishi lozim. Chig‘atoy tili va adabiyotining rivojiga katta hissa qo‘shgan Boburning asarlari bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ularning zamonaviy o‘zbek va uyg‘ur adabiy yozma tilining shakllanishiga ham ta’siri bo‘lgani ma’lum. Shu bois tarixiy shaxslarning asarlari o‘tmishdan bugungi kungacha yorituvchi tarixiy, adabiy, madaniy va ma’naviy qadriyat sifatida katta ahamiyatga ega. Adabiy asarlar til, madaniyat, san’at va estetik qadriyatlarning rivojiga katta hissa qo‘shadi va bu jihatlar keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar bilan alohida yoritilishi mumkin. Chig‘atoy xoni davrida Movarounnahrda turk unsurlarining tili, Temuriylar davrida shakllangan adabiy turkiy lahja asosida yaratilgan Markaziy Osiyo turk adabiyotiga “Chig‘atoy adabiyoti” deb nom beriladi².

Chig‘atoy turkchasi XV asrdan XX asrgacha bo‘lgan davrda butun Sharqiy turklar tomonidan keng hududda yagona yozma til sifatida ishlatilgan va aynan shu

¹ <https://islamansiklopedisi.org.tr/baburname>

² Akün, O.F. 1991. “Boburnoma”, Islom Ansiklopediyasi, Turkiya Diyanat Jamg‘armasi Nashriyoti, 4-jild, 404–408-betlar, Istanbul.



tilda ko‘plab asarlar yaratilgan. Ushbu asarlardan biri — Boburshoh tomonidan yozilgan xotiralar to‘plami — “Boburnoma” asaridir. “Boburnoma” Sharqiy turkchadagi eng go‘zal nasriy (prozaik) asarlardan biri hisoblanadi. Bu asar turk madaniyati va tarixining muhim manbasi bo‘lishi bilan birga, o‘sha davrdagi turk tilining ham muazzam bir til yodgorligidir. “Boburnoma”ning nasriy asar ekanligi sababli uning mazmun va bayon (uslub) boyligi orqali o‘z davrining til xususiyatlarini, tovush va shakl tizimini, leksikasini (so‘z boyligini) aks ettirgani, besh yuz yildan beri til madaniyatining saqlanishiga xizmat qilgani unutilmasligi kerak. Chig‘atoy turkchasining adabiy til sifatida shakllanishida, xalq tilida yashab qolishida, hozirgi kungacha ko‘plab xususiyatlarini yetkazib kelishida Boburning asarlari, xuddi Alisher Navoiy kabi, katta ta’sir ko‘rsatgan. Eski turkiy adabiyotda juda kam uchraydigan avtobiografik asar sifatida Boburnoma, o‘ziga xosligi bilan vaqt o‘tishi bilan yanada ahamiyatliroq bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, unda kamchiliklar, zaifliklar, yetishmovchiliklarning samimiy tarzda bayon etilishi bugungi kunda xotira (yoki esdalik) janrida asar yozmoqchi bo‘lganlar uchun ham ibrat bo‘la oladi.

Turkiy adabiyotdagi muhim muammolardan biri – xotira, biografiya va avtobiografiya atamalarining ta’rifi, talqini borasida ba’zi tafovutlar, chalkashliklar yoki umumiy yondashuvning yo‘qligidir. B. Altinova o‘zining “Kavram Kargaşası Çerçevesinde Edebî Bir Tür Olarak ‘Hatıra’” nomli kitobida bu masalani batafsil tushuntiradi. U quyidagicha deydi: “Xotira janridagi asarlarni tahlil qilishda eng katta muammo – bu janrning aniq chegaralarini belgilab bo‘lmasligi tufayli, xotira janrining xususiyatlariga ega bo‘lmagan asarlarning ham ‘xotira’ deb talqin qilinishidir. Xotira janrining aniq xususiyatlarini belgilash uchun uni ko‘pincha aralashtirib yuboriladigan biografiya, avtobiografiya, kundalik va sayohatnomalar bilan solishtirib, o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlab olish lozim bo‘ladi. Inson hayotini bayon qiluvchi asar sifatida tariflanadigan ‘biografiya’ – fransuz tilidagi ‘biographie’ so‘zining turkchadagi muqobilidir. Ilgari ‘tarjimai hol’ deb atalgan bu atama hozirda ‘hayot yo‘li’ ma’nosida qo‘llanadi³. Ahmet Kabakli biografiyalarni

³ Altinova, B. 2003. “Tushuncha chalkashligi doirasida adabiy janr sifatida ‘xotira’”. Turkbilig, 6-son: 3–12.



san'at, ilm-fan, siyosat va boshqa sohalarda mashhur bo'lgan insonlarning hayotini hikoya qiluvchi asarlar sifatida ta'riflab, bu asarlarning uslub sifati ularning adabiy qiymatini belgilashini ta'kidlaydi. S. Kemal Karaalioğlu esa biografiya asarlari hayotda muvaffaqiyatga erishgan insonlarning hayoti va kurashlarini tasvirlab, ular hayot uchun eng yaxshi namuna bo'lishini aytadi⁴.”

“Turk Adabiyoti Ensiklopedisi”da ham qayd etilganidek, avtobiografiya xotira janriga yaqin bo'lib, ba'zan u bilan chambarchas bog'liqdir. “Bir insonning o'z hayot hikoyasini o'zi yozgan asar” sifatida ta'riflanadigan “avtobiografiya” – fransuz tilidagi “autobiographie” so'zining muqobilidir. Bugungi kunda “o'z hayot yo'li” ma'nosida ishlatiladigan avtobiografiyani Mahmut Kemal İnal Sevük “bir kishining o'z tarjimai holini o'zi yozishi” deb tariflaydi. Yuqoridagi ta'riflar asosida “Boburnoma – bu xotira asarimi, biografiyami yoki avtobiografiyami?” degan savolga javob topish lozim. Boburnoma: Avvalo avtobiografik asar bo'lishiga qaramay, mazmuni jihatidan adabiy janr sifatida ko'p qirrali va o'zgaruvchan xususiyatga ega. bAsar xotira shaklida boshlanadi va davomida kundalik (diary) janriga xos belgilarni ham o'zida mujassam etadi. Boburning yurtdan-yurtga qilgan sayohatlari va yurishlari chog'ida boshidan kechirganlari, ko'rganlarini hikoya qilgan sahifalarda esa sayohatnoma janriga xos belgilar seziladi. Boburshoh bergan ma'lumotlar tufayli asar geografiya, etnografiya, botanika, zoologiya va folklor ansiklopediyasi darajasiga ko'tariladi.

Tadqiqotchi Banu Altinovaning adabiy janrlar ichida xotira janrining murakkabligini ta'kidlagani haqli ekanini Boburnoma orqali ko'rish mumkin. Boburning hayoti, safarlari, kuzatuvlari, qarashlari, his-tuyg'ulari bilan bir qatorda voqealarni bayon etishdagi uslubi ham bu asarning geografiya va tarix bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Bunday ko'p qirrali va ko'p qatlamli asarlarga na o'z zamonida, na keyingi asrlarda ko'p uchraydi. Xotira (ya'ni esdalik) janrining bu qadar turlicha talqin qilinishining eng asosiy sababi – ta'riflarning asarlarga qarab belgilanayotganidir. Induktiv yoki dedektiv yondashuvdagi ta'riflar chalkashliklarga sabab bo'lmoqda. Ammo “qaysi biri to'g'ri?” degan savol bizni batafsil ilmiy bahsga

⁴ Kaçalin, M.S. 2007. Orxon yozuvlari, Islom Ansiklopediyasi, 33-jild, 2-son, 390–393-betlar, Istanbul.



olib kiradi. Xotira, biografiya, avtobiografiya tushunchalarining G'arb adabiyotidagi va Sharq adabiyotidagi talqinlari solishtirilib o'rganilishi zarur. Tarixga, asrlar osha o'tmishga nazar solsak, O'rxon bitiklarida Bilga Xoqon va Kultegin Turk davlatini barpo etish chog'ida olib borgan urushlari, kurashlari bilan birga amalga oshirgan ishlarini – ochni to'ydirgan, yalang'ochni kiyinganini aytadilar⁵. Buni ham xotira asari, deb ayta olamiz. Unda keltirilgan nasihatlar, kelajak avlodga yozilgan vasiyatlar bu bitiklarning ham ko'p qirrali va ko'p qatlamli ekanini ko'rsatadi. Xotira (esdalik) janrining qiziqarli talqinlaridan birini ifodalayotgan holda, turk adabiyoti tarixining muhim siymalaridan biri bo'lgan Mehmet Kaplan quyidagicha deydi: “Eski turk adabiyotida bu janrning hayratga sazovor istisnosi mavjud. Bu — Boburdir. Ammo uning esdaliklari ham qilgan urushlarining qisqacha qaydlaridan iborat. Bobur go'yoki o'zining voqeanavisi bo'lib chiqqan. Uning asaridan shaxsiyati haqida juda kam fikr olishimiz mumkin⁶”. Ya'ni Bobur o'z shaxsini emas, voqealarni, atrof-muhitni, zamon va sharoitlarni tasvirlab, ma'lumot berishni asosiy maqsad qilgan. Uning o'z xarakteri haqida bevosita aks etgan tafsilotlar juda kam. 19-asrda Tanzimat davrida Ziyo Poshsha, 20-asr boshlarida esa Halid Ziyo hamda Huseyn Cahit tomonidan yozilgan esdaliklar diqqatga sazovordir. Respublika davrida Halide Edib Adivor, Yoqub Qadri, Yahyo Kamol Beyatli, Abdulhaq Shinasi Hisor, Yusuf Ziyo Ortoch, Reshot Nuri Guntekin, Rafiq Halid Qoray kabi adiblarning esdaliklari san'atga intilish bilan yozilgan adabiy xarakterdagi xotiralar sifatida tanilgan. Bundan tashqari, urush yillarida yozilgan esdaliklar deyilganda Rauf Orbay, Qozim Karabekir kabi arboblarning esdaliklari hamda ayrim davlat arboblari tomonidan yozilgan xotiralar turk adabiyoti tarixida muhim o'rin tutadi⁷.

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Boburnoma nihoyatda sodda va tushunarli tili hamda uslubi bilan ajralib turuvchi go'zal bir adabiy asardir. U faqatgina xotira yoki esdalik sifatida emas, balki XVI asrda mavjud bo'lgan ko'plab hududlar, shaharlar, aholi punktlari, geografik xususiyatlar, me'moriy inshootlar,

⁵ Kaplan, M. 1966. “Xotiralar haqida”. Hisar jurnali, VI jild, 27-son: 9-bet.

⁶ Akün, O.F. 1991. “Boburnoma”, Islom Ansiklopediyasi, Turkiya Diyanat Jamg'armasi Nashriyoti, 4-jild, 404–408-betlar, Istanbul.

⁷ Kaplan, M. 1966. “Xotiralar haqida”. Hisar jurnali, VI jild, 27-son: 9-bet.



odamlarning savdo-sotiq hayoti hamda tabiatdagi turli rollarini tasvirlagan asar sifatida ham qadrlidir. Bobur o'z ko'zi bilan ko'rgan joylardagi tabiiy va geografik muhitni chinakam kuzatuvchanlik va real yondashuv bilan aks ettirgan, atrofida ko'rgan har bir narsaga e'tibor bilan qaragan, borgan mamlakatlarining geografiyasi, iqlimi, shaharlari, inshootlari, san'at yodgorliklari, boshqaruv shakllari, aholining urf-odatlarini, odamlarning fe'l-atvori, hatto o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ham kuzatuvlar olib borgan va yozib qoldirgan.

Boburnoma G'arb ilm-fan va tafakkur olamida katta qoyil qolinish bilan tilga olinadigan, avtobiografik janrning dunyo adabiyoti durdonalari qatorida e'tirof etilgan asardir. Unda faqat voqealarning bayoni emas, balki chuqur kuzatuvlarga asoslangan mulohazalar ham mavjud. Gaplashuv tiliga xos soddalik va tabiiylik asarga alohida go'zallik bag'ishlagan. Bobur bezakli iboralar yoki ortiqcha so'z o'yinlaridan qochgan — bu esa Boburnomani jozibali qilgan va uni asrlar osha o'quvchiga ham yaqinlashtirgan fazilatlardandir. Asarda ishlatilgan so'z boyligi shunchalik kengki, u orqali Chig'atoy turkchasining so'zligi tuzilishi mumkin. Bu til nafaqat boy, balki ifoda kuchi yuqori va puxta ishlangan tildir. Boburnoma Chig'atoy adabiyotida nasrning durdona darajasiga ko'tarilgan cho'qqidir. Uslubiy jihatdan u Navoiyning nasridan ancha ilg'ordir deya olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Aka, M. 2014. T.C. Fırat Universiteti İktisadiy fanlar instituti, Turk tili va adabiyoti kafedresi. Boburnomaning til xususiyatlari. Magistrlik dissertatsiyasi. 2014-yil.
2. Akün, O.F. 1991. “Boburnoma”, Islom Ansiklopediyasi, Turkiya Diyanat Jamg'armasi Nashriyoti, 4-jild, 404–408-betlar, Istanbul.
3. Altınova, B. 2003. “Tushuncha chalkashligi doirasida adabiy janr sifatida ‘xotira’”. *Turkbilig*, 6-son: 3–12.
4. <https://islamansiklopedisi.org.tr/baburname>
5. Arat, R. R. 2006. Bobur, Boburnoma; Tarjimachi: Reshit Rahmeti Arat, Nashrga tayyorlovchi: Chetin Shan, Kabalcı nashriyoti, Istanbul.



6. Kaçalın, M.S. 2007. Orxon yozuvlari, Islom Ansiklopediyasi, 33-jild, 2-son, 390–393-betlar, Istanbul.
7. Kaplan, M. 1966. “Xotiralar haqida”. Hisar jurnali, VI jild, 27-son: 9-bet.
8. Yıldırım, A. Va Şimşek, H. 2008. Ijtimoiy fanlarda sifatli tadqiqot usullari, Ankara: Seçkin nashriyoti.
9. <https://islamansiklopedisi.org.tr/baburname>